


## 95. Sonning ulushini topish

**Yondosh mavzu:**  
fokuslar.

Doira, aylana, radius, diametr,  
sektor, doiraning qismi.



1. Madina uzunligi 16 cm bo'lgan bir nechta qog'oz tasmalar tayyorladi. U har bir tasmaning berilgan qismini kesib olishi kerak. Madina qolgan qismlarning uzunligini qanday hisoblagan bo'lishi mumkin?



Sonning  $\frac{1}{n}$  ulushini topish uchun uni  $n$  ta teng bo'laka bo'lish kerak. Bu  $\frac{1}{n}$  ulush " $n$  dan bir qism" deb o'qiladi.




2. Daftaringizda uzunligi 12 cm bo'lgan uchta tasma chizing.

- birinchi tasmaning  $\frac{1}{2}$  qismini bo'yang;
- ikkinchi tasmaning  $\frac{1}{3}$  qismini bo'yang;
- uchinchi tasmaning  $\frac{1}{4}$  qismini bo'yang.

## 95. Sonning ulushini topish



3. To'g'ri to'rtburchakning yuzi  $48 \text{ cm}^2$  ga teng. Bo'yalgan qismining yuzini toping. Bu qismni butunning ulushi sifatida yozing.



4. Ifodalar tuzing va ularning qiymatlarini hisoblang.

Sinfda 36 nafar o'quvchi bor.

a) O'quvchilarning yarmi – qizlar. Sinfdagi qizlar necha nafar?

b) O'quvchilarning uchdan biri matematik fokuslar tayyorlagan. Necha nafar o'quvchi matematik fokus tayyorlagan?

d) O'quvchilarning chorak qismi tanga bilan fokus ko'rsata oladi. Necha nafar o'quvchi tanga bilan fokus ko'rsata oladi?

e) O'quvchilarning to'qqizdan bir qismi arqon bilan fokus ko'rsata oladi. Necha nafar o'quvchi arqon bilan fokus ko'rsata oladi?



5. Sirkdagi tomosha 12:30 da boshlanib, 2 soat 20 minut davom etdi. Tomosha soat nechada tugagan?



6. Matematik fokusning sirini toping.

a) Istalgan sonni o'ylang.

b) Bu sonni 3 ga ko'paytiring.

d) Ko'paytmaga 12 ni qo'shing.

e) Yig'indini 3 ga bo'ling.

f) Bo'linmadan o'ylagan soningizni ayiring.

g) Natija 4 chiqdi.



7. Geometrik fokus: daftar varag'ini bitta odam sig'adigan qilib qirqa olasizmi?

## 95. Sonning ulushini topish




8. Ifodalarni solishtiring.

$732 : 6$ <input type="checkbox"/>	$372 : 6$	$726 + 139$ <input type="checkbox"/>	$139 + 726$
$665 : 5$ <input type="checkbox"/>	$665 : 7$	$805 + 421$ <input type="checkbox"/>	$422 + 806$
$308 : 7$ <input type="checkbox"/>	$308 \cdot 7$	$142 + 131$ <input type="checkbox"/>	$142 - 131$



9. Grafik modeldan foydalanib, tenglama tuzing.



Umumiy yuzi: 6 909 mm<sup>2</sup>



Umumiy yuzi: 13 083 mm<sup>2</sup>



10. Matematik fokusning sirini toping.

- 1 dan 9 gacha istalgan sonni o'ylang.
- Xayolan bu sonning davomiga yana shunday ikkita raqam yozing.
- Hosil bo'lgan sonni 3 ga bo'ling.
- Bo'linmani 37 ga bo'ling.
- Javobni yozing – bu siz o'ylagan sonning o'zi!



11. Amallar tartibiga rioya qilib hisoblang. "Fokus" so'zini yana qanday atash mumkin?

$$(32 \cdot 5 + 8\ 765) : 3 + 24\ 400 : 4 : 100 - 2\ 900 + 64$$

- |                |               |                |                |
|----------------|---------------|----------------|----------------|
| <b>A</b> 200   | <b>I</b> 160  | <b>L</b> 2 975 | <b>U</b> 6 100 |
| <b>I</b> 3 036 | <b>L</b> 8925 | <b>Z</b> 61    | <b>Y</b> 136   |



12. Majlislar zalida har birida 45 tadan o'rindiqlik bo'lgan 18 ta qator bor. 276 ta o'rindiqlik tomoshabin kelib o'tirgan bo'lsa, yana nechta bo'sh o'rindiqlik qolgan?